

O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning
2025 yil 29 yanvardagi № IXT-22-2025 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*


Amal qilish muddati 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	
Kafedra/ bo'lim	Oilaviy tibbiyot kasb kasalliklari kursi bilan	
O'quv dastur nomi	“OILAVIY ShIFOKORLIK“	
O'qish turi	Ixtisoslashtirish kursi	
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	G'.S. Xalimbetov, M.S.Masharipova, D.A. Xasanova, R.A. Nurmuxamedova, Kdirbayeva F.R	
Siklning umumiy soati	1440 kredit	
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar		
		
t.f.d., dotsent, G'.S. Xalimbetov	P.h.D., dotsent D.A. Xasanova.	t.f.d., dotsent R.A. Nurmuxamedova
		
P.h.D, dotsent M.S.Masharipova	Assistent F.R. Kdirbaeva	
Maqsad	Oilaviy shifokor faoliyati uchun kerakli kompetensiyalarga ega yangi mutaxassis tayyorlash uchun yangi bilim va ko'nikmalarga o'qitish. Professional kompetensiyalarini yangilash asosida, aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar	

	majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllarini ambulator sharoitida erta tashhishlash va davolash, bemor hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish bo'yicha malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda, maxalliy va jaxon sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan holda, profilaktik va davolash vazifalarini bajara oladigan mutaxassis tayyorlash.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	O'quv dastur 2000 yilgacha "Davolash", "Tibbiy pedagogika", "Tibbiy profilaktika" va "Pediatriya" fakultetini tugatgan tor soxadagi mutaxassislar, ish stajida 3 yil va undan ortiq tanaffuslar bo'lgan vrachlar uchun mo'ljallangan (O'zR SSV 31.08.2016y. 387-sonli buyrug'i). Kadrlar yetishmovchiligi bo'lgan xududlardan, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining taklifi va O'zR Sog'liqni saqlash vazirligining roziligi asosida, istisno sifatida stomatologlar uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	1. Amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatini tashkil qilishda qo'llay usullarni o'rgatish; 2. Zamonaviy milliy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; 3. Shifokorlarni isbotlangan tibbiyot asoslariga o'rgatish va uni birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati tizimi amaliyotiga tadbiq qilish; 4. Soha bo'yicha asosiy birlamchi, ikkalamchi va uchlamchi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; 5. Biriktirilgan aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratiga o'rgatish; 6. Xalqaro kasalliklar tasnifi (MKB-10) ga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllarini ambulator sharoitida erta tashhishlash va davolash

	bilim va ko‘nikmalariga o‘rgatish; 7. Aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, sog‘lom aholi o‘rtasida skrining va bemorlarni dispanser ko‘zatuvinini olib borishni tashkillashtirishga o‘rgatish; 8. Bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalariga o‘rgatish. 9. aholini sog‘lom guruxlarga ajratish, jadval asosida emlashni tashkil qilish, sog‘lom va bemorlarni dispanser kuzatuvinini tashkillashtirishda tibbiy brigada faoliyatini yo‘lga qo‘yib, oilaviy shifokorlik amaliyotini olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish; 10. Davlat tibbiy sug‘urta tizimi doirasida birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari faoliyatida raqamlashtirish jarayonlarini egallash; 11. Oilaviy shifokorlik amaliyotiga samarali antenatal parvarish, patronajning universal progressiv modelini, ona va bola salomatligini muxofaza qilishdagi asosiy bilim va ko‘nikmalarni egallash;
Sikl tarkibi	1-Modul: Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida (BTSYoM) jamoat salomatligini saqlash 2-Modul: Oilaviy shifokorlik amaliyotida ona va bola salomatligini saqlashda yangi direktiv yo‘nalishlar. OIV/OITS va dermatologik kasalliklar profilaktikasiga zamonaviy yondashuv. 3-Modul: Asosiy yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashhishlash, davolash, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. 4-Modul: Oilaviy shifokorlik amaliyotida ichki kasalliklarni tashhishlash va davolashda yangi profilaktik yondashuv. 5-Modul: Xirurgiya, travmatologiya, shoshilinch holatlarda, LOR va oftalmologik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko‘rsatishdagi zamonaviy usullar bo‘yicha amaliyot.

O'qish bazalari



48 Oilaviy poliklinika, Toshkent shahri,
Shayxontoxur tumani, Abay ko'chasi 5 uy.
TXKMRM klinikasi, Mirobod tumani, Sodik
Azimov ko'chasi, 74 uy.



Simulyatsion asbob/uskunalar



